“ADOLAT”
MILLIY HUQUQIY AXBOROT MARKAZI
Guvohnoma № 636478
Litsenziya C-5669732

“HUQUQ va BURCH+” —
«ПРАВО и ДОЛГ+» —
"RIGHT and DUTY+"
Journal home page:
https://adolatmarkazi.uz/magazine/electron?id=328

2025-yil
3-son
oktabr
ISSN 3093-8546



Ichki ishlar organlarining xotin-qizlarga nisbatan sodir etiladigan tazyiq va zo‘ravonliklar profilaktikasi bo‘yicha faoliyatini takomillashtirish

Yulduz Maxtumova,
Jamoat xavfsizligi universiteti mustaqil izlanuvchi
Huquqshunos
e-mail: Yulduzmaxtumova@gmail.com

Аннотация. Mazkur maqolada ichki ishlar organlarining xotin-qizlarga nisbatan sodir etiladigan tazyiq va zo‘ravonliklarning oldini olishga qaratilgan faoliyati, huquqiy asoslari, mavjud muammolar hamda ularni bartaraf etish yo‘llari yoritilgan. Xususan, profilaktika inspektorlari va xotin-qizlar masalalari bo‘yicha inspektorlar faoliyati, himoya orderi amaliyoti, idoralararo hamkorlik, psixologik tayyorgarlik va gender stereotiplari masalalari tahlil qilinadi. Shuningdek, xalqaro tajribaga asoslangan samarali yechimlar taklif etilgan.

Калит сўзлар. xotin-qizlar, zo‘ravonlik, huquqiy asos, ichki ishlar organlari, profilaktika, himoya orderi, gender tengligi, huquqiy savodxonlik.

Аннотация. В статье рассматривается деятельность органов внутренних дел по предотвращению давления и насилия в отношении женщин, правовые основы, существующие проблемы и пути их решения. В частности, анализируется работа инспекторов профилактики и инспекторов по делам женщин, практика применения охранного ордера, межведомственное сотрудничество, психологическая подготовка и проблемы гендерных стереотипов. Также предлагаются эффективные решения, основанные на международном опыте.

Ключевые слова. женщины, насилие, правовая основа, органы внутренних дел, профилактика, охранный ордер, гендерное равенство, правовая грамотность.

Annotation. This article discusses the activities of law enforcement agencies aimed at preventing pressure and violence against women, highlighting the legal framework, existing problems, and ways to overcome them. In particular, the work of preventive inspectors and gender-focused officers, the practice of protection orders, interagency cooperation, psychological training, and the challenges of gender stereotypes are analyzed. The article also proposes effective solutions based on international experience.

Keywords. women, violence, legal framework, law enforcement, prevention, protection order, gender equality, legal awareness.

Xotin-qizlarga nisbatan sodir etiladigan tazyiq va zo‘ravonliklar profilaktikasi bo‘yicha ichki ishlar organlarining faoliyati bir qator normativ hujjatlarga muvofiq amalga oshiriladi. Avvalo, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining qator moddalariga asoslangan.

Ichki ishlar organlari Jinoyat-protsessual kodeksida belgilangan qonuniy protsessual harakatlarni amalga oshiradi. Jinoyat-protsessual kodeksi ichki ishlar organlari faoliyatini quyidagi asosiy jihatlar bo‘yicha tartibga soladi:

tergov va surishtiruv jarayonlarini olib borish, gumonlanuvchini hibsga olish va uni nazorat qilish, jinoyat ishlari bo‘yicha guvohlarni so‘roq qilish;

jinoyat ishi bo‘yicha ayblov e’lon qilish va sudga yuborish tartibi;

protsessual huquqlarni buzmaslik va qonun ustuvorligini ta’minlash.

Jinoyat-protsessual kodeksi bo‘yicha ichki ishlar organlari ayblov protsessini amalga oshirish, guvohlarni so‘roq qilish, tergovni tashkil etish va ayblanuvchilarga nisbatan hukm chiqarish jarayonlarini muvofiqlashtirish bilan shug‘ullanadi. Ushbu kodeksning 345-moddasiga asosan, Jinoyat kodeksining tegishli moddalarida ko‘rsatilgan jinoyatlarga doir ishlar bo‘yicha, shuningdek, voyaga yetmaganlar sodir etgan jinoyatlarga doir barcha ishlar bo‘yicha (qasddan odam o‘ldirish bilan bog‘liq bo‘lgan jinoyatlar bundan mustasno) dastlabki tergov ichki ishlar organlari tomonidan amalga oshirilishi belgilangan [1].

O‘zbekiston Respublikasi Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksiga asosan, ichki ishlar organlari ushbu kodeksning 248-moddasida belgilangan huquqbuzarliklarga nisbatan, ushbu kodeksning 303–348-moddalarida belgilangan barcha qonuniy protsessual harakatlarni amalga oshiradi [2].

O‘zbekiston Respublikasi “Huquqbuzarliklar profilaktikasi to‘g‘risida”gi qonunining 9-moddasida ichki ishlar organlari huquqbuzarliklar profilaktikasini bevosita amalga oshiruvchi organlar va muassasalar tizimiga kiradi.

Shuningdek, ichki ishlar organlari faoliyatini muvofiqlashtirishda O‘zbekiston Respublikasining “Ichki ishlar organlari to‘g‘risida”gi qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Ichki ishlar organlarining jamoat xavfsizligini ta’minlash va jinoyatchilikka qarshi kurashish sohasidagi faoliyatini yanada takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha tashkiliy chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi, “Ichki ishlar organlarining faoliyati samaradorligini tubdan oshirish, jamoat tartibini, fuqarolar huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ishonchli himoya qilishni ta’minlashda ularning mas’uliyatini kuchaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmonlari hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Ichki

ishlar organlari faoliyatini yanada takomillashtirishga doir tashkiliy chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi, “Ichki ishlar organlarining jamoat tartibini saqlash va jamoat xavfsizligini ta’minlash sohasidagi faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, “Ichki ishlar organlari xodimlarini tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorlari va boshqa huquqiy hujjatlar muhim ahamiyatga ega.

Ichki ishlar organlarining xotin-qizlarga nisbatan sodir etiladigan tazyiq va zo‘ravonliklar profilaktikasi bo‘yicha faoliyatiga keladigan bo‘lsak, xotin-qizlarga nisbatan tazyiq va zo‘ravonlik holatlari nafaqat shaxsiy fojia, balki jamiyatda huquqiy, ijtimoiy va axloqiy inqirozlarning ko‘rinishidir. Bunday holatlarning oldini olish va ularga qarshi kurashishda ichki ishlar organlarining roli muhim. Bu borada O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi tizimida 2019-yilda katta o‘zgarishlar amalga oshirildi.

Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 14-iyundagi 495-sonli “Buxoro viloyatini xotin-qizlar bilan ishlash yo‘nalishida namunali hududga aylantirish chora-tadbirlari dasturini tasdiqlash to‘g‘risida”gi qaroriga [3] asosan Buxoro viloyati ichki ishlar tizimida namuna sifatida xotin-qizlar masalalari bilan ishlovchi (katta) inspektor lavozimi joriy etildi va oradan biroz vaqt o‘tib, 2019-yil 14-iyulda Ichki ishlar vazirining “Ichki ishlar organlarining huquqbuzarliklar profilaktikasi bo‘linmalari faoliyatini tashkil etish tartibi to‘g‘risidagi nizomga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish haqida”gi buyrug‘iga [4] asosan ichki ishlar organlarining barcha tuzilmalarida xotin-qizlar masalalari bo‘yicha inspektor lavozimi joriy etildi. Ularning faoliyatini muvofiqlashtirish hamda xizmat vazifa va faoliyatini tashkillashtirish maqsadida ichki ishlar organlari tizimiga oid qator normalar qabul qilindi.

Jumladan, ichki ishlar organlarining xotin-qizlarga nisbatan tazyiq va zo‘ravonlikning oldini olish va ularga qarshi kurashish faoliyatini tartibga soluvchi asosiy hujjatlar – O‘zbekiston Respublikasining “Xotin-qizlarni tazyiq va zo‘ravonlikdan himoya qilish to‘g‘risida”gi [5] va “Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to‘g‘risida”gi qonuni [6], hamda Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 4-yanvardagi 3-sonli qarori bilan tasdiqlangan “Tazyiq va zo‘ravonlikdan jabrlangan xotin-qizlarga himoya orderini berish, ijrosini ta’minlash va monitoring olib borish to‘g‘risida”gi nizom [7] qabul qilindi.

A. Murodov ichki ishlar organlarining xotin-qizlarga nisbatan tazyiq va zo‘ravonlikning oldini olish borasidagi faoliyatini ichki ishlar organlari tayanch punkti profilaktika inspektorlari o‘zlariga biriktirilgan ma’muriy hududlarda oilalarda zo‘ravonlik bilan bog‘liq huquqbuzarliklarning sabab va sharoitlarini aniqlash, o‘rganish, tahlil qilish hamda ularning profilaktikasini tashkil etish, shuningdek, ularni bartaraf etish bo‘yicha zarur chora-tadbirlarni amalga oshirishini ta’kidlagan. Mazkur faoliyatning asosiy maqsadi – birinchidan, oila a’zosi (a’zolari)da zo‘ravonlikning asosiy manbai

bo‘lgan g‘ayriijtimoiy xulq-atvorli, uni sodir etishga moyil bo‘lgan shaxslar, shuningdek bunday qilmishlardan jabrlanishga moyillikni shakllantiruvchi omillarni aniqlash va bartaraf etishga oid barvaqt profilaktik chora-tadbirlarni amalga oshirish; ikkinchidan, oiladagi zo‘ravonlik bilan bog‘liq huquqbuzarliklardan jabrlanganlarni himoya qilish va ularga nisbatan ijtimoiy reabilitatsiya qilish hamda ijtimoiy moslashtirish chora-tadbirlarini ko‘rish; uchinchidan, huquqbuzarlik sodir etgan shaxslarga nisbatan qonun hujjatlarida belgilangan ta’sir choralarini ko‘rishdan iborat deb talqin qilgan [8].

Shuningdek, A. Murodov ichki ishlar organlari faoliyatiga oid normativ-huquqiy hujjatlarning tahliliga asoslangan holda oiladagi zo‘ravonlik bilan bog‘liq huquqbuzarliklarning profilaktikasini amalga oshiruvchi ichki ishlar organlari xizmatlarini, ularga yuklatilgan vazifalarni amalga oshirish bo‘yicha asosiy faoliyat yo‘nalishlaridan kelib chiqqan holda, shartli ravishda quyidagi guruhlarga bo‘lgan:

a) asosiy faoliyat yo‘nalishi – huquqbuzarliklar profilaktikasi, shu jumladan ularning barvaqt profilaktikasini amalga oshiruvchi xizmatlar;

b) asosiy faoliyat yo‘nalishi – jamoat tartibi va xavfsizligini ta’minlash bo‘lgan xizmatlar;

v) asosiy faoliyat yo‘nalishi – sodir etilgan jinoyatlarni aniqlash, fosh etish va javobgarlik muqarrarligini ta’minlash bo‘lgan xizmatlar;

g) asosiy faoliyat yo‘nalishi – sodir etilgan jinoyat uchun sud tomonidan tayinlangan jazolarning ijrosini ta’minlash bo‘lgan xizmatlarga ajratish mumkin.

Profilaktika (katta) inspektorlari ushbu yo‘nalishdagi faoliyatni samarali tashkil qilish bo‘yicha ma’muriy hududdagi har bir oilani o‘rganib chiqishi hamda notinch bo‘lgan oilalarni aniqlab, ular bilan profilaktik ishlarni olib borish va ularga ijtimoiy jihatdan yordam ko‘rsatishi, shuningdek, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari bilan birgalikda ularning maishiy va boshqa muammoli masalalarini hal etishga ko‘maklashishi lozim [9].

Ichki ishlar organlarining xotin-qizlarga nisbatan tazyiq va zo‘ravonliklar profilaktikasini umumiy, maxsus, yakka tartibdagi va viktimologik turlarga ajratish mumkin. Ichki ishlar organlarining zo‘ravonlik bilan bog‘liq huquqbuzarliklarning umumiy, maxsus, yakka va viktimologik profilaktikasini tashkil etish O‘zbekiston Respublikasining “Huquqbuzarliklar profilaktikasi to‘g‘risida”gi qonuni 23–45-moddalariga va ushbu normalar ijrosi yuzasidan qabul qilingan hamda boshqa normativ-huquqiy hujjatlar talablariga muvofiq amalga oshiriladi.

Ichki ishlar organlarining xotin-qizlarga nisbatan tazyiq va zo‘ravonlikka qarshi faoliyati huquqbuzarlik profilaktikasi turlari doirasida ichki ishlar organlari xotin-qizlarga nisbatan tazyiq va zo‘ravonlikning oldini olishda huquqbuzarlik profilaktikasi bo‘yicha kompleks choralarni amalga oshiradi.

Guvohnoma № 636478 Litsenziya C-5669732 ISSN 3093-8546

Umumiy huquqbuzarlik profilaktikasi. Umumiy profilaktika – bu keng ommani qamrab oluvchi, huquqbuzarlik sodir etilishining umumiy shart-sharoitlarini kamaytirishga qaratilgan chora-tadbirlar tizimidir. Ichki ishlar organlari tomonidan quyidagi yo‘nalishlarda amalga oshiriladi:

aholii, ayniqsa, erkaklar va o‘smirlar o‘rtasida gender tengligi, sog‘lom oilaviy munosabatlar, zo‘ravonlik oqibatlari bo‘yicha ma’rifiy-tarbiyaviy ishlar o‘tkazish;

OAV, ijtimoiy tarmoqlar orqali ommaviy axborot tadbirlari, targ‘ibot va tashviqot ishlarini tashkil etish;

mahallalarda, mehnat jamoalarida va ta’lim muassasalarida profilaktik suhbatlar, seminar-treninglar tashkillashtirish;

fuqarolarning huquqiy madaniyatini oshirishga qaratilgan huquqiy targ‘ibot kampaniyalarini tuzish.

Yakka huquqbuzarlik profilaktikasi. Yakka profilaktika – bu aniq bir shaxsga nisbatan yo‘naltirilgan, u tomonidan huquqbuzarlik sodir etilishining oldini olishga qaratilgan chora-tadbirlardir. Ichki ishlar organlari bu yo‘nalishda quyidagilarni amalga oshiradi:

tazyiq yoki zo‘ravonlik sodir etgan yoki sodir etish xavfi mavjud bo‘lgan shaxslar bilan profilaktik suhbatlar o‘tkazish;

ularni “profilaktik nazoratdagi shaxslar” ro‘yxatiga kiritish va doimiy monitoring olib borish;

jabrlanuvchi xotin-qizlar bilan individual ishlash, ularning xavfsizligini ta’minlash maqsadida himoya orderlarini rasmiylashtirish;

zarurat tug‘ilganda zo‘ravon shaxslarni ma’muriy javobgarlikka tortish yoki vaqtincha ajratish choralari.

Maxsus huquqbuzarlik profilaktikasi. Maxsus profilaktika – bu zo‘ravonlik xavfi yuqori bo‘lgan ijtimoiy guruhlar, hududlar yoki oilalarga nisbatan yo‘naltirilgan aniq chora-tadbirlar tizimidir. Ichki ishlar organlari tomonidan amalga oshiriladi:

tazyiq va zo‘ravonlik yuqori bo‘lgan hududlar, oilalar yoki shaxslar bo‘yicha maxsus ro‘yxatlar tuzish;

ayollarni himoya qilishga ixtisoslashgan xotin-qizlar inspektorlari faoliyatini yo‘lga qo‘yish;

maxsus reydlar, kuzatuvlar orqali xavfli holatlarni erta aniqlash;

boshqa sektorlar bilan hamkorlikda (mahalla, sog‘liqni saqlash, ta’lim) institutsional yondashuv asosida ishlash.

Viktimologik huquqbuzarlik profilaktikasi. Viktimologik profilaktika – bu jabrlanuvchining zo‘ravonlikka uchrash xavfini kamaytirishga va uni reabilitatsiya qilishga qaratilgan chora-tadbirlar tizimidir. Ichki ishlar organlari tomonidan:

zo‘ravonlikdan jabrlangan xotin-qizlar uchun psixologik, ijtimoiy va huquqiy yordam ko‘rsatish;

reabilitatsiya markazlari yoki “ishonch telefoni” orqali yordam ko‘rsatish;

jabrlanuvchilarni jamiyatga qayta integratsiya qilishda ijtimoiy xizmatlar bilan hamkorlik qilish;

Guvohnoma № 636478 Litsenziya C-5669732 ISSN 3093-8546

jabrlanuvchilarning takroriy zo‘ravonlikka uchrashining oldini olish uchun monitoring va kuzatuv mexanizmlarini joriy qilish.

Ichki ishlar organlarining xotin-qizlarga nisbatan tazyiq va zo‘ravonlikka qarshi faoliyati huquqbuzarlik profilaktikasining barcha to‘rt shaklini o‘z ichiga oladi va ular o‘zaro uzviy bog‘liq. Ushbu tizim har bir holatning o‘ziga xosligidan kelib chiqib, kompleks, tizimli va barqaror yondashuvni taqozo etadi.

Ichki ishlar organlari, uning barcha sohaviy xizmatlari va tarkibiy tuzilmalari qonun hujjatlari bilan belgilangan vakolatlari doirasida aholi, uning barcha qatlamlari o‘rtasida huquqbuzarliklar, shu jumladan oiladagi zo‘ravonlik bilan bog‘liq huquqbuzarliklarning profilaktikasini olib borishda ularning huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirishga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirishlari zarur. Zero, huquqiy madaniyatni milliy va umuminsoniy qadriyatlar ustuvorligi asosida yuksaltirishga alohida e’tibor berish lozim. [10]

Ichki ishlar tizimida xotin-qizlarga nisbatan tazyiq va zo‘ravonliklar profilaktikasi borasida qator kamchiliklar mavjud.

Ko‘plab ayollar o‘zlariga nisbatan tazyiq yoki zo‘ravonlik sodir etilganini jinoyat deb hisoblamaydi, bu esa ularning ichki ishlar organlariga murojaat qilishiga to‘sqinlik qiladi. Ayrim holatlarda jamiyatdagi an’anaviy gender stereotiplari tufayli jabrlanuvchilar sukut saqlashni afzal ko‘rishadi.

Jabrlanuvchilar ko‘pincha oilasi, qarindoshlari yoki mahalla faollari tomonidan “oilani saqlab qolish” nomi bilan orqaga qaytariladi. Bu holat ichki ishlar xodimlarining profilaktik ishlarini samarasiz qiladi, chunki zo‘ravonlik davom etaveradi, lekin bu haqida huquq-tartibot idoralariga xabar berilmaydi.

Malakali kadrlar yetishmovchiligi – zo‘ravonlikka uchragan xotin-qizlar bilan ishlashda psixologik tayyorgarlik va empatiya talab etiladi, biroq barcha profilaktika inspektorlari yoki xotin-qizlar masalalari bo‘yicha inspektorlar bu borada yetarlicha malakaga ega emas. Xotin-qizlar masalalari bo‘yicha inspektorlar soni kam, mavjudlari esa katta hududlarga javobgar bo‘lgani sababli individual yondashuv yetarli darajada bo‘lmaydi. Bunday profilaktika ishlarini olib borish nafaqat huquq, balki pedagogika va psixologiya sohasida ham muayyan tayyorgarlikka ega bo‘lishni talab etadi. Masalan, AQSHda polisiya xodimlarining tayyorgarlik kursi albatta oilaviy kriminologiya, bolalar psixologiyasi muammolarini o‘rganish o‘z ichiga oladi. IIV organlari amalga oshirayotgan profilaktika ishining samaradorligi xodimlarning psixologik va pedagogik malakasiga bog‘liq ekaniga shubhamiz yo‘q [11]. D.A.Shestakov kuzatuvlariga qaraganda, ichki ishlar organlari xodimlarining bunday tayyorgarlik darajasi, ularning yuridik tayyorgarlik darajasiga qaraganda 10–11 baravar pastroq baholanishi mumkin[12].

Idoralararo hamkorlikning sustligi – ichki ishlar organlari, sog‘liqni saqlash, ta’lim va mahalla tizimlari o‘rtasidagi hamkorlik mexanizmlari zaif ishlaydi. Xotin-qizlar haqida tizimli monitoring

Guvohnoma № 636478 Litsenziya C-5669732 ISSN 3093-8546

yoki vaziyatga mos kompleks chora-tadbirlar rejasi ishlab chiqilmaydi. Ishlab chiqilgan taqdirda ham amalda javobgarlik mavjud emas.

O‘zbekiston Respublikasining “Xotin-qizlar va bolalar huquqlari, erkinliklari hamda qonuniy manfaatlarini ishonchli himoya qilish tizimi yanada takomillashtirilishi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi qonuniga [13] asosan O‘zbekiston Respublikasining “Xotin-qizlarni tazyiq va zo‘ravonlikdan himoya qilish to‘g‘risida”gi qonunining 23-moddasiga o‘zgartirish kiritilib, tazyiq va zo‘ravonlikka uchragan xotin-qizlarga berilgan himoya orderlari muddati jabrlanuvchining yashash joyidagi tuman yoki shahar jinoyat ishlari bo‘yicha sudi tomonidan uzaytiriladigan bo‘ldi. Respublika jinoyat ishlari bo‘yicha sudlariga himoya orderlari muddatini o‘ttiz kungacha emas, balki bir yilgacha muddatga uzaytirish vakolati berildi. Ammo sud qaroridan keyingi nazorat yana ichki ishlar organlariga yuklatilgan. Sud tomonidan amal qilish muddati uzaytirilgan himoya orderlari 2023-yil 12 oy davomida 128 ta, 2024-yil 12 oy davomida ham 128 ta uzaytirilgan. Takroriy berilgan himoya orderlari esa 2023-yil 12 oy davomida 888 ta, 2024-yil 12 oyi davomida 988 tani tashkil etadi [14]. Shuningdek, Respublika jinoyat ishlari bo‘yicha sudlari tomonidan ushbu qonun qabul qilinganidan buyon kamdan-kam holatlargina o‘ttiz kungacha bo‘lgan muddatdan ko‘proq muddatga uzaytirilgan [15]. Bu esa sun’iy tarzda takroriy berilgan himoya orderlari sonining ortishiga sabab bo‘lmoqda.

Axborot-kommunikatsion texnologiyalardan foydalanishning cheklanganligi va texnologiyalar borasida bilimlarning yetishmasligi – “kiberzo‘ravonlik” (internet orqali haqorat qilish, ta’qib qilish) holatlarini aniqlash va ularga tezkor chora ko‘rish amaliyoti yo‘lga qo‘yilmagan.

Ushbu muammolar, albatta, ilmiy tadqiqotlarga hamda xorij tajribasiga asoslangan qator yechimlarni talab qiladi.

– O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish tizimini tubdan takomillashtirish to‘g‘risida”gi farmoniga [16] asosan, xotin-qizlar uchun maxsus huquqiy savodxonlik dasturlari ishlab chiqilishi kerak. Avstraliyada “Our Watch” dasturi orqali zo‘ravonlikni tan olish va xabar berishga undovchi ta’limiy kampaniyalar maktablar, oliy ta’lim va ish joylarida olib boriladi [17]. Shu asosda, O‘zbekistonda ham maktab va mahalla darajasida gender zo‘ravonlikni tan olishga qaratilgan vizual, interaktiv ta’lim shakllari joriy etilishi lozim.

– Alohida oila bilan ishlovchi tizim joriy etish lozim. Bu borada xorij tajribasiga asoslanadigan bo‘lsak, Kanada – oilaviy zo‘ravonlik bo‘yicha mustaqil ijtimoiy xizmatlar mavjud. (Canada’s Family Violence Initiative – FVI) – 15 ta federal idora va agentliklar o‘rtasidagi hamkorlikda olib boriladigan milliy dastur. Oilaviy mojarolar bo‘yicha ijtimoiy ishchilar (social workers) politsiyadan mustaqil bo‘lib, jabrlanuvchini oiladan ajratish yoki boshpana

Guvohnoma № 636478 Litsenziya C-5669732 ISSN 3093-8546

topishda yordam beradi [18].

– Ichki ishlar tizimi uchun xotin-qizlar bilan ishlovchi profilaktika inspektorlariga davriy psixologik tayyorgarlik joriy etilishi kerak, hamda Ichki ishlar organlarining xotin-qizlarga nisbatan sodir etiladigan tazyiq va zo‘ravonliklar profilaktikasi faoliyati bo‘yicha alohida malaka oshirish tizimi tuzilishi lozim.

– Ichki ishlar organlarining xotin-qizlarga nisbatan sodir etiladigan tazyiq va zo‘ravonliklar profilaktikasi faoliyatini yaxshilash uchun idoralararo hamkorlikni mustahkamlash lozim. Buning uchun hamkorlik bo‘yicha har bir idora hisob beradigan tizimga o‘tish lozim.

– Himoya orderi muddatini avtomatik uzaytirish usulini tizimga kiritish lozim. Bu usul sun’iy tarzda himoya orderlarining takroran berilishini kamaytiradi, hamda ichki ishlar organlari xodimlari uchun qulaylik tug‘diradi. “Violence Against Women Act (VAWA), 1994 (re-authorized 2022) – federal qonun” asosida barcha shtatlarda himoya orderlari beriladi va kerakli hollarda avtomatik uzaytiriladi. Masalan, Kaliforniya shtatining “Family Code Section 6345”ga ko‘ra, sud himoya orderini 5 yilgacha avtomatik tarzda uzaytirishi mumkin [19].

– Ichki ishlar organlari faoliyati doirasida xotin-qizlarga nisbatan sodir etilayotgan kiberjinoyatlarning oldini olish maqsadida IIO xodimlarini bu sohadagi malakasini oshirish hamda aholini bu turdagi jinoyatlardan himoyalash uchun kiberzo‘ravonlik holatlarini aniqlash va javobgarlik mexanizmini belgilovchi maxsus normalar zarur.

Xulosa. Xotin-qizlarga nisbatan tazyiq va zo‘ravonliklar jamiyat barqarorligiga tahdid soluvchi ijtimoiy-huquqiy hodisa bo‘lib, uni bartaraf etishda ichki ishlar organlarining profilaktik faoliyati muhim o‘rin tutadi. O‘zbekistonda bu borada muayyan normativ-huquqiy asoslar yaratilgan bo‘lsa-da, amaliyotda bir qator tizimli muammolar mavjud. Jumladan, jabrlanuvchilarning sukut saqlashi, jamiyatda gender stereotiplarning hukmronligi, malakali kadrlar yetishmovchiligi, idoralararo hamkorlikning sustligi va kiberzo‘ravonlikka qarshi samarali mexanizmlarning mavjud emasligi Ichki ishlar organlari faoliyatining samaradorligini pasaytirmoqda.

Mazkur muammolarni bartaraf etish uchun bir qator ilmiy asoslangan chora-tadbirlar taklif etiladi. Jumladan, ichki ishlar xodimlari, ayniqsa, profilaktika va xotin-qizlar masalalari bo‘yicha inspektorlarning kasbiy va psixologik tayyorgarligini oshirish, jabrlanuvchilarga ko‘rsatiladigan huquqiy va psixologik yordamni kuchaytirish, idoralararo axborot almashinuvi va monitoring tizimini yaratish, shuningdek, mahalla institutini huquqiy jihatdan mas’ul subyektga aylantirish zarur. Shuningdek, xorijiy tajribalar, xususan, Avstraliyaning “Our Watch” dasturi, AQShdagi himoya orderlarining avtomatik uzaytirilish amaliyoti, Germaniya va Kanadadagi ijtimoiy xizmatlar va politsiya o‘rtasidagi hamkorlik tizimlari O‘zbekiston uchun moslashtirilgan yondashuvlarni ishlab chiqishda asos bo‘la

oladi. Ichki ishlar organlarining xotin-qizlar xavfsizligini ta’minlashdagi faoliyatini takomillashtirish, avvalo, zo‘ravonlikka nisbatan “nol bardoshlik” tamoyilini shakllantirish, institutsional hamkorlikni kuchaytirish va gender tenglik tamoyillarini huquqiy-amaliy jihatdan mustahkamlash bilan chambarchas bog‘liqdir.

ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР РЎЙХАТИ

1994-yil 22-sentyabrdagi O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat protsessual kodeksi. https://lex.uz/mact/-111460

1994-yil 22-sentyabrdagi O‘zbekiston Respublikasi Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksi. https://lex.uz/acts/-97664

2019-yil 14-iyundagi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Buxoro viloyatini xotin-qizlar bilan ishlash yo‘nalishida namunali hududga aylantirish chora-tadbirlari dasturini tasdiqlash to‘g‘risida”gi qarori. https://lex.uz/docs/4377483

2019-yil 14-iyulda O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirining “Ichki ishlar organlarining huquqbuzarliklar profilaktikasi bo‘linmalari faoliyatini tashkil etish tartibi to‘g‘risidagi nizomga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish haqida”gi buyrug‘i.

2019-yil 2-sentyabrdagi O‘zbekiston Respublikasining “Xotin-qizlarni tazyiq va zo‘ravonlikdan himoya qilish to‘g‘risida”gi qonuni, O‘RQ-561-son. https://lex.uz/docs/4494709

2019-yil 2-sentyabrdagi O‘zbekiston Respublikasining “Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to‘g‘risida”gi qonuni, O‘RQ-562-son. https://lex.uz/ru/docs/4494849

2020-yil 4-yanvardagi Vazirlar Mahkamasining 3-sonli qarori bilan tasdiqlangan “Tazyiq va zo‘ravonlikdan jabrlangan xotin-qizlarga himoya orderini berish, ijrosini ta’minlash va monitoring olib borish to‘g‘risida”gi nizom. https://lex.uz/docs/4676892

A. Sh. Murodov. “Ichki ishlar organlarining oiladagi zo‘ravonlik bilan bog‘liq huquqbuzarliklar profilaktikasini takomillashtirish” (yurid. fan. doktoridissertatsiyasi). – T., 2019. – B. 111–112.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 18-apreldagi “Ichki ishlar organlarining huquqbuzarliklar profilaktikasi bo‘linmalari faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 2896-sonli qarori. http://www.lex.uz

Amirov Z. A. Huquqbuzarliklarning oldini olishda huquqiy tarbiyaning roli: avtoreferat (yuridik fanlari bo‘yicha falsafa doktori dissertatsiyasi). – T., 2018. – B. 19.

S.S.Niyozova “Shaxsga qarshi zo‘rlik ishlatib sodir etiladigan jinoyatlarning viktimologik profilaktikasi” (yurid. fan. doktori dissertatsiyasi). – T., 2020. – B. 254.

Shestakov D.A. Semeynaya kriminologiya. – SPb., Peterburgskoye universitet, 1995. 174-b.

2023-yil 12-apreldagi O‘zbekiston Respublikasining “Xotin-qizlar va bolalar huquqlari, erkinliklari hamda qonuniy manfaatlarini ishonchli himoya qilish tizimi yanada takomillashtirilishi

Guvohnoma № 636478 Litsenziya C-5669732 ISSN 3093-8546

munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi qonuni, O‘RQ-829-son. https://lex.uz/docs/6430272#6431947

O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligining tazyiq va zo‘ravonlikka uchragan xotin-qizlarga berilgan himoya orderlari bo‘yicha hisoboti.

Sud.uz sayti. https://public.sud.uz/report/CRIMINAL

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish tizimini tubdan takomillashtirish to‘g‘risida”gi farmoni, 2019-yil 9-yanvardagi PF-5618-son. https://lex.uz/ru/docs/-4149765?ONDATE=30.11.2021

Our Watch (Australia). (2015). Change the Story: A Shared Framework for the Primary Prevention of Violence Against Women and Their Children in Australia. https://www.ourwatch.org.au

Kanada hukumatining rasmiy sayti: Canada.ca https://www.canada.ca/en/public-health/services/health-promotion/stop-family-violence/initiative.html

U.S. Department of Justice – https://www.justice.gov/ovw